

MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDA QADRIYATLARNING AHAMIYATI.

Isamatov Ravshan Sunnatovich

Chirchiq Oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti katta o‘qituvchisi,
podpolkovnik

***Annotatsiya:** Maqolada mustaqillik yillarida xalqimizning ma’naviy merosi, urf – odat va qadriyatlarga munosabati ijobiy tomonga o‘zgarganligi tahlil etilgan. Shuningdek, milliy urf – odat va qadriyatlarimizni yoshlarimiz ongiga ta’sirchan usul va vositalar bilan singdirish orqali ularda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usining shakllanishiga erishish mumkinligi masalalari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** milliy o‘zlikni anglash, qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, milliy meros, urf – odat, g‘oyaviy kurash, mafkuraviy tahdid, milliy g‘urur, iymon-e’tiqod, sabr-qanoat, mehnatsevarlik, mehr-muruvvat.*

THE SIGNIFICANCE OF VALUES AT NATIONAL SELF – AWARENESS.

***Abstract:** In the article analysis of changings into positive side attitude to spiritual heritage of our people, to customs, traditions and values in the years of independence was made. Also, tasks of forming sense of national self – awareness in our youth by effective methods and means of introduction of national customs, traditions and values into their consionsness were elucidated.*

***Key words:** national self – awareness, values, human values, national heritage, customs, traditions, ideological war, ideological threat, national pride, belief, tolerance, diligence, mercy.*

Inson tabiatan erkinlikka, ezgulikka intilib yashaydi. Aslida hayotning mazmuni axloqiy qadriyatlar bilan barhayotdir. Kun sayin o‘zgarib borayotgan hozirgi dunyoda joylarda ma’naviyat, ma’rifat va milliy mafkura asoslarini ochib beruvchi jonli

misollar bilan targ‘ibot tashviqot ishlarini yanada jonlantirishimiz zarurligini davrning o‘zi talab etmoqda.

Hech bir halq o‘z tarixini bilmay turib, taraqqiyotga erisha olmaydi. Shu ma’noda ulug‘ ajdodlarimiz qoldirgan meros, milliy urf – odat va qadriyatlarimizni yoshlarimiz ongiga yanayam ta’sirchan usullar bilan singdirish ularni ma’nan barkamol, yetuk qilib tarbiyalashda, ularda o‘zlikni anglash tuyg‘usining shakllanishida katta rol o‘ynaydi.

Barchamizga ma’lumki, XI va XIII asrlar Markaziy Osiyo xalqlari tarixida ma’naviy jihatdan yuksalish davri bo‘ldi. Tabiatshunos olimlar – Xorazmiy, Farg‘oniy, Jurjoniylar, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy kabi mutafakkirlar Rumiylar, Firdavsiy, Rudakiy, Nosir Xisrav, Umar Xayyom singari faylasuf, tarixchi, shoirlar shu davrda yashab ijod etdilar.

Sharq mutafakkirlari, avvalo, insonning ruhiy olamini boyitishga, din, iymon-e’tiqod va ma’naviy qadriyatlarning ustuvor bo‘lishiga e’tibor qaratdilar. Bunday g‘oyalarning zamirida ruhiy erkinlik, o‘zlikni anglash, haqiqatni tanish kabi muammolarning ko‘proq falsafiy yechimlari berilgan. Masalan, bu borada J.Rumiylar “Inson buyuk bir mo‘jiza va uning ichida hamma narsa yozilgan. Biroq zulmat va pardalar borki, ular yozuvlarni o‘qishga imkon bermaydi. Zulmat va pardalar, turli – tuman mashg‘ulotlar insonning dunyo ishlari borasida olgan tadbirlar va ko‘ngilning so‘ngsiz orzularidir”¹, - deydi.

Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo‘lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me’morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma’naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo‘lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi.

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan

¹ Румий Ж. Ичингдаги ичингдадир. – Т.: Ёзувчи, 1997. – Б.51

qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, “Avesto” deb atalgan bebaho ma’naviy manbaa alohida o‘rin tutadi. Avvalambor, shuni aytish joizki, olis ota-bobolarimizning aql-zakovati, qalb qo‘ri mahsuli bo‘lmish bu noyob yodgorlikning zamon to‘fonlaridan, qanchadan-qancha og‘ir sinovlardan o‘tib, bizning davrimizgacha yetib kelganining o‘zida katta ma’no mujassam. Bunday o‘lmas asoriatlilar bu ko‘hna o‘lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo‘lganidan guvohlik beradi. Ana shunday tarixiy yodgorlik namunalari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ularda ifoda etilgan teran fikr va g‘oyalar, hayot falsafasi bizni bugun ham hayratda qoldirishiga yana bir karra amin bo‘lamiz.

Misol uchun, “Avesto”ning tub ma’no-mohiyatini belgilab beradigan “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” degan tamoyilni oladigan bo‘lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo‘lgan saboqlar borligini ko‘rish mumkin. Ana shunday fikrlar, ya’ni, ezgu niyat, so‘z va ish birligini jamiyat hayotining ustuvor g‘oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma’naviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog‘liq, nechog‘lik mustahkam hayotiy asosga ega ekani ayniqsa e’tiborlidir.

Barkamol axloq va yaxshi hulq asta-sekinlik bilan shakllanadi. Xalq axloqiy mezonlari, qadriyatlari o‘tmish ma’naviy merosi bilan ko‘hna ona zamin bilan bog‘liqdir. Ana shuning uchun axloqiy tasavvurlarimiz, odob maktabimiz, milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimiz, madaniy merosimiz pirovard natijada millat uchun, uning obro‘si va istiqboli uchun xizmat qilsagina boshqalarda ehtirom va havas tuyg‘ularini o‘yg‘otadi, ana shundagina millat o‘z o‘tmishini, o‘zligini, taqdirini, qadriyatlarni, urf-odatlarini unutmaydi. Yaxshi fazilatlar, odatlar, an’analar, milliy qadriyatlar va buyuk bobolarimiz siymosi, ularning tarixiy merosi avlodlar yo‘lini shamchiroq yanglig‘ yoritib boradi. Shu sababli xalqimiz ma’naviy hayotida milliy qadriyatlarning o‘rni, madaniyat va xalq urf-odatlariga islomning ta’siri, xalqning o‘z qadr – qimmatini tushunishi, milliy o‘zligini tanish, o‘zligiga qaytish va millatning ijtimoiy qiyofasining shakllanishi kabi masalalarning bog‘liqligi muammolarini tadqiq etish bugungi kunda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga molikdir.

XXI asrda yoshlarimiz ruhiyatiga qarshi qaratilgan g‘oyaviy – mafkuraviy xurujlar turli usullarda tobora noziklashib, “madaniylashib” bormoqda. Turli kinofilmlar, televidenie ko‘rsatuvlari va radio eshittirishlari shaklida, gazeta – jurnallar, Internet tarmog‘i va boshqa yo‘nalishlarda muntazam ravishda tiqishtirilayotgan, yoshlarimizning milliy tushunchalarini barbod etishga, mafkuraviy immunitetimizni susaytirishga, yoshlarni zararli g‘oyalar ta’siriga olishga urinayotgan tajovuzlarga qarshi turadigan asosiy omil eng avvalo xalqimizning or-nomusi, diniy va dunyoviy e’tiqodi, ma’rifatini, milliy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan ma’naviy qudratidir.

Bugun ona Vatanimizning barcha go‘shalarida buyuk tarixiy obidalarimiz qaytadan tiklanib, qadamjollarga aylanmoqda, o‘lmas milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashimiz esa o‘zligimizni teranroq anglashimizga olib kelmoqda. Milliy qadriyatlarimiz umuminsoniy demokratik tamoyillarga qarshi bo‘lmay, aksincha, ularni yanada boyitish va takomillashtirishga yordam beradi, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Rumi J. Ichingdagi ichingdadir. – T.: Yozuvchi, 1997. – B.51.
2. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi (ikki jildli). I – jild – T.: O‘qituvchi, 1995. Jumaboev Y. O‘zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar tarqqiyoti tarixidan. – T.: O‘qituvchi, 1997.